Xorijiy tajriba asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish

Sattorova Go‘zalxon Mamadaminovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Mustaqil tadqiqotchisi
guzalxon.sattorova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolamizda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda xorijiy tajribalar asosida ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy metodlari tahlil qilamiz. Tadqiqot davomida O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimidagi yondashuvlar qiyosiy o‘rganildi. Xususan, kommunikativ metod, CLIL (Content and Language Integrated Learning), Task-Based Learning hamda reflektiv yondashuvlarning metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishdagi o‘rni ochib berildi. Maqolada talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini oshirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va reflektiv fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi strategiyalar ham yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida amaliy faoliyat namunalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: metakognitsiya, metakognitiv kompetentlik, CLIL, Task-Based Learning, kommunikativ yondashuv, student-centered learning, reflective learning, self-monitoring, til o‘rganish strategiyalari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития метакогнитивной компетентности у будущих учителей английского языка, а также современные методы преподавания английского языка на основе зарубежного опыта. В ходе исследования был проведён сравнительный анализ подходов в образовательных системах Узбекистана и зарубежных стран. В частности, раскрыта роль коммуникативного метода, CLIL (Content and Language Integrated Learning — предметно-языковое интегрированное обучение), обучения на основе задач (Task-Based Learning), а также рефлексивного подхода в развитии метакогнитивной компетентности. Также в статье рассматриваются стратегии, направленные на развитие у студентов навыков самостоятельного обучения, самоконтроля и рефлексивного мышления. Кроме того, приведены примеры практической деятельности на основе опыта Узбекистана и зарубежных стран.

Ключевые слова: метакогниция, метакогнитивная компетентность, CLIL, обучение на основе задач, коммуникативный подход, обучение, ориентированное на студента, рефлексивное обучение, самоконтроль, стратегии изучения языка.

Developing metacognitive competence in prospective english language teachers based on foreign experience

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of developing metacognitive competence in prospective English language teachers, as well as modern approaches to English language teaching based on foreign experience. During the study, comparative analysis of educational approaches in Uzbekistan and foreign countries was conducted. In particular, the role of the communicative method, CLIL (Content and Language Integrated Learning), Task-Based Learning, and reflective approaches in developing metacognitive competence was explored. The article also highlights strategies aimed at enhancing students’ independent learning skills, self-monitoring, and reflective thinking. In addition, practical activity examples based on the experience of Uzbekistan and foreign countries are presented.

Keywords: metacognition, metacognitive competence, CLIL, Task-Based Learning, communicative approach, student-centered learning, reflective learning, self-monitoring, language learning strategies.

KIRISH. Bugungi globallashgan, xalqaro reytingdan yuqori pog‘onani o‘rin zabt etish maqsadida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlayotgan davlatlarni o‘z ichiga olgan dunyoda ingliz tilini samarali o‘qitish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida nafaqat til ko‘nikmalarini, balki o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil boshqarish, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli metakognitiv kompetentlikni shakllantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biri sifatida qaralmoqda.

Metakognitsiya tushunchasi insonning o‘z fikrlash jarayonini anglash, rejalashtirish, monitoring qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida metakognitiv strategiyalarni qo‘llash talabalarda mustaqil o‘rganish, reflektiv fikrlash hamda samarali kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda ingliz tilini o‘qitishda student-centered learning, immersion, CLIL, flipped classroom kabi innovatsion metodlar keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarni joriy etish va kommunikativ yondashuvlarni rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy tajribani milliy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish masalasi muhim ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolamizning maqsadi — xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda samarali strategiyalarni aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISM. Metakognitsiya termini ilk bor amerikalik psixolog John H. Flavell tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u insonning o‘z bilish jarayonlarini anglash va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Metakognitiv kompetentlik quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. **Rejalashtirish (Planning)** – o‘quv maqsadini belgilash va strategiyalarni tanlash;
2. **Monitoring (Monitoring)** – o‘quv jarayonini nazorat qilish;
3. **Baholash (Evaluation)** – natijalarni tahlil qilish va xatolarni tuzatish.

Metakognitiv strategiyalar talabalarning o‘z o‘quv faoliyatiga ongli yondashuvini shakllantiradi hamda ularni mustaqil ta’lim olishga tayyorlaydi.

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ingliz tilini o‘qitishning qiyosiy tahlili. Ingliz tilini o‘qitishda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar o‘rtasidagi asosiy farqlar metodologiya, til muhiti va texnologik imkoniyatlarda namoyon bo‘ladi.

Jihatlar	O‘zbekiston	Xorijiy mamlakatlar
O‘qitish metodlari	Kommunikativ va an’anaviy metodlar uyg‘unligi	CLIL, immersion, flipped classroom
Til muhiti	Sun’iy til muhiti	Tabiiy til muhiti
O‘quv jarayoni	O‘qituvchi va talaba hamkorligi asosida	To‘liq student-centered learning
Texnologiyalar	Bosqichma-bosqich rivojlanmoqda	Keng integratsiyalashgan
Baholash	Akademik natijalarga urg‘u	Reflektiv va amaliy baholash

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

CLIL metodining ahamiyati. CLIL (Content and Language Integrated Learning) — mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish metodidir. Ushbu metodda til alohida fan sifatida emas, balki boshqa fanlar mazmunini o‘rganish vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Masalan, talabalar tarix, geografiya yoki biologiya mavzularini ingliz tilida o‘rganish orqali:
til ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
mavzuni chuqurroq anglaydi;
mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.
CLIL metodining asosiy afzalliklari:
kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi;
metakognitiv strategiyalarni faollashtiradi;
o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi;
real hayotiy vaziyatlarda til qo‘llash imkonini yaratadi.

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, ingliz tilini o‘qitishda metakognitiv strategiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini oshiradi hamda til ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi. EF English Proficiency Index (2025) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston ingliz tilini bilish darajasi bo‘yicha 123 davlat orasida 104-o‘rinni egallagan. Ushbu holat ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy metodlar va metakognitiv strategiyalarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, EF EPI 2025 reytingi 2.2 million kattalar ishtirokidagi test natijalari asosida tuzilgan.

Metakognitiv strategiyalar va ularning amaliy qo‘llanilishi.

1.Self-monitoring. Talaba o‘z faoliyatini nazorat qiladi: “Qaysi joyni tushunmadim?”**,** “Nega xato qildim?” Bu strategiya o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini rivojlantiradi.

2.Self-questioning. Talaba o‘ziga savollar beradi: “Matnning asosiy g‘oyasi nima?”, “Qaysi ma’lumot muhim?” Bu usul tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

3.Reflective diary. Talabalar darsdan keyin: nimani o‘rganganini, nimada qiynalganini, keyingi safar nimani yaxshilash kerakligini yozib boradi.

4. Skimming va scanning. Skimming — matnning umumiy mazmunini tez tushunish; Scanning — kerakli ma’lumotni izlab topish.

Keyingi bosqichda biz misol tariqasida amaliy faoliyat namunalarini ko‘rib chiqamiz.

1-faoliyat. O‘zbekiston tajribasi asosida

Mavzu:“Environmental Problems”

Metod: Task-Based Learning + Self-monitoring

Jarayon: Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi va “Atrof-muhit muammolari” mavzusida poster tayyorlaydi. Har bir guruh: muammoni aniqlaydi; yechim taklif qiladi; taqdimot qiladi.

So‘ng talabalar **reflective diary** yozadi: “Bugungi darsda nimani yaxshi bajardim?”, “Qaysi joyda qiynaldim?”

Natija: Talabalarda speaking(gapirish), collaboration(hamkorlik) va metakognitiv monitoring ko‘nikmalari rivojlanadi.

2-faoliyat. Xorijiy tajriba asosida

Mavzu: “World History Through English” (CLIL)

Metod: CLIL + Student-centered learning

Jarayon: Talabalar ingliz tilida tarixiy mavzu bo‘yicha maqola o‘qiydi va: asosiy g‘oyani aniqlaydi; yangi so‘zlarni yozib boradi; kichik debat tashkil qiladi. O‘qituvchi fasilitator sifatida yo‘naltiruvchi rolni bajaradi.

Natija: Talabalarda: analytical reading, critical thinking, reflective learning, communicative competence rivojlanadi.

XULOSA. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tajribada qo‘llanilayotgan student-centered learning, CLIL va reflektiv yondashuvlar talabalarni mustaqil va ongli o‘rganishga yo‘naltiradi. O‘zbekistonda ham ingliz tilini o‘qitish tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda va xalqaro tajribalarni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, kommunikativ metodlar, raqamli texnologiyalar va metakognitiv strategiyalarni qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, metakognitiv strategiyalar: talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi; tanqidiy va analitik fikrlashni shakllantiradi; tilni amaliy qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kelgusida ingliz tilini o‘qitishda xorijiy tajriba va milliy metodikani uyg‘unlashtirish orqali ta’lim sifatini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education, 2007.
2. Flavell J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring. American Psychologist, 1979.
3. Harmer J. How to Teach English. Pearson Longman, 2007.
4. Hacker D. J., Dunlosky J., Graesser A. C. Metacognition in Educational Theory and Practice. Routledge, 1998.
5. Oxford R. Language Learning Strategies. Heinle & Heinle Publishers, 1990.
6. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
7. Vygotsky L. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
8. Coyle D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press, 2010.
9. Tolipova G. F. “Metacognitive Strategies Awareness and Success in Learning English.” Modern Education and Development, 2025.
10. Marsh D. Content and Language Integrated Learning (CLIL): A Development Trajectory. University of Córdoba, 2012.